

MAVZU: BOJXONA TIZIMIDA TRANZIT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Bojxona instituti umumhuquqiy
fanlar kafedrasi pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Rafikova Muattar Ravshanovna
Bojxona instituti 4-kurs kursanti
G'aniyev Diyorbek*

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы совершенствования транзитных операций в таможенной системе. В рамках исследования изучено состояние таможенной транзитной системы в Республике Узбекистан, пути ее совершенствования, а также опыт международных таможенных транзитных систем. На основе статистических данных проанализированы тенденции и перспективы роста транзитного потенциала Узбекистана.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxona tizimida tranzit operatsiyalarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida bojxona tranzit tizimining hozirgi holati, uni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, xalqaro bojxona tranzit tizimlarining tajribasi o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston tranzit salohiyatining o'sish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilingan.

Ключевые слова: таможенный транзит, таможенный контроль, транзитные операции, международный опыт, таможенная система Узбекистана, внешняя торговля, логистика.

Kalit so'zlar: bojxona tranziti, bojxona nazorati, tranzit operatsiyalari, xalqaro tajriba, O'zbekiston bojxona tizimi, tashqi savdo, logistika.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda xalqaro savdo-sotiqlarining jadal rivojlanishi, global ishlab chiqarish zanjirlarining kengayishi va globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida tovarlarning xalqaro harakati tobora dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda mamlakatlar ichidan o'tadigan tranzit yo'laklari va ularning samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy joylashuvi, ya'ni Markaziy Osiyoning markazida, Yevropa va Osiyo qit'alari o'rtaqidagi asosiy savdo yo'llari kesishmasida joylashganligi mamlakatga noyob tranzit salohiyatini taqdim etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan faol tashqi iqtisodiy siyosat,

bojxona qonunchiligining liberallashtirilishi va xalqaro savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi bojxona tranzit operatsiyalarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bojxona tranziti – bu tovarlarni bir bojxona organidan boshqa bojxona organiga yoki xalqaro bojxona tranziti doirasida bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'tkazishni nazarda tutuvchi bojxona tartib-taomili hisoblanadi. Tranzit operatsiyalarini samarali tashkil etilishi mamlakatning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. [1]

2023 yilda tranzit operatsiyalaridan olingan budjet daromadlari 315 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2018 yildagi ko'rsatkichdan 2.1 baravar ko'p.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki 2023 yilda transport xizmatlari eksporti hajmi 2.4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu mamlakatning jami xizmatlar eksportining 36.5% ini tashkil etadi. Tranzit operatsiyalarini bilan bog'liq sohalarda 2023 yilda 84 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Investitsiyalarni jalb qilish. 2018-2023 yillarda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga 2.6 milliard AQSh dollaridan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tranzit operatsiyalarining samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, tranzit operatsiyalaridan olinadigan daromadlar mamlakatning YIMga nisbatan o'rtacha 2-3% ni tashkil etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida strategik joylashgan bo'lib, shimolda Qozog'iston, janubda Turkmaniston va Afg'oniston, sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Bu joylashuv mamlakatga noyob tranzit imkoniyatlarini taqdim etadi. 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududi orqali tranzit tariqasida o'tgan tovarlar hajmi 24.6 million tonnani tashkil etdi, bu 2018 yildagi ko'rsatkichdan 42% ko'pdir. Tranzit operatsiyalarini qiymatining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 15.3% ni tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yilga kelib mamlakatning tranzit salohiyati 35-40 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Bu maqsadlarga erishish uchun 2023-2026 yillarda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun 3.2 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilish rejalashtirilgan [2]

O'zbekistonda bojxona tranziti tizimining samarali ishlashiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar mavjud:

Tranzit deklaratsiyalarini rasmiylashtirish va bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish jarayonlari hali ham murakkab va ko'p vaqt talab etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda bojxona rasmiyatchiliklarini o'tkazish uchun o'rtacha 32 soat sarflanadi, bu OECD mamlakatlardagi o'rtacha ko'rsatkichdan (8.5 soat) sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Raqamlashtirish darajasining pastligi. Bojxona tranziti jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish darjasini hali ham yetarli emas. 2022 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bojxona operatsiyalarining 68% i elektron shaklda amalgalashtirilgan.

oshirilgan, qolgan 32% esa qog'oz hujjatlardan foydalanishni talab qiladi. Transport va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy terminal komplekslarning kamligi, bojaxona nazorati punktlari quvvatining cheklanganligi kabi muammolar tranzit operatsiyalarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. [3]

BOJXONA TRANZITI SOHASIDAGI XALQARO TAJRIBA

Yevropa Ittifoqi (YeI) dunyodagi eng rivojlangan bojaxona tranziti tizimlaridan biriga ega. YeI ning yagona tranzit tizimi (Common Transit System - CTS) va Kompyuterlashtirilgan tranzit tizimi (New Computerized Transit System - NCTS) bojaxona tranziti sohasidagi ilg'or tajribalarni o'zida mujassam etgan. Yagona tranzit tizimi (NCTS) - bu YeI a'zo davlatlari, EFTA mamlakatlari (Norvegiya, Islandiya, Lixtensteyn va Shveytsariya) va Turkiya o'rtaida qo'llaniladigan bojaxona tranzit tartib-taomili hisoblanadi. Bu tizim tovarlarni bojaxona nazorati ostida bir bojaxona organidan boshqasiga, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga olib o'tishni ta'minlaydi.

YeI ning bojaxona tranziti tizimining asosiy afzalliklari:

To'liq raqamlashtirilgan jarayon. Barcha bojaxona operatsiyalari elektron shaklda, qog'oz hujjatlarsiz amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi. Barcha tranzit operatsiyalari va deklaratsiyalar markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasida saqlanadi, bu ma'lumotlar almashinuvi va nazoratni soddalashtiradi. Avtomat ma'lumotnomalar almashinuvi. Bojaxona organlari o'rtaida ma'lumotlar avtomatiq tarzda almashtiriladi, bu ma'muriy yukni kamaytiradi. Ishonchli operatorlar uchun soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari joriy etilgan. Yevropa Ittifoqining statistik ma'lumotlariga ko'ra, NCTS tizimining joriy etilishi bojaxona rasmiyatshiliklarini bajarish vaqtini o'rtacha 70% ga qisqartirdi va bojaxona operatsiyalari xarajatlarini 20-30% ga kamaytirdi. [4]

TIR konvensiyasi va uning ahamiyati

TIR konvensiyasi (fr. Transport International Routier) - bu xalqaro yuk tashish daftarchasidan foydalangan holda xalqaro yuk tashishlar to'g'risidagi bojaxona konvensiyasi hisoblanadi. Konvensiya 1975 yilda qabul qilingan va hozirgi kunda 78 dan ortiq mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan. TIR tizimining asosiy maqsadi xalqaro yuk tashishlarni soddalashtirish va tezlashtirish, shuningdek bojaxona va soliq organlarining manfaatlarini himoya qilishdir. TIR karneti tranzit mamlakatlardagi bojaxona organlariga taqdim etiladi va yuk tashish vaqtida bojaxona deklaratsiyasi va kafolat hujjati vazifasini bajaradi.

Kafolat mexanizmi. TIR tizimida xalqaro kafolat mexanizmi mavjud bo'lib, u tranzit davlatlardagi bojaxona to'lovlarining to'lanishini ta'minlaydi. Yuk transporti vositalari yoki konteynerlar bojaxona muhrlari bilan plombalanadi, bu yuk tashish vaqtida tovarlarning daxlsizligini ta'minlaydi. Bir mamlakatning bojaxona organlari tomonidan o'tkazilgan nazorat choralarini boshqa mamlakatlarning bojaxona organlari

tomonidan tan olinadi. TIR tizimida ishtirok etish uchun transport operatorlari milliy kafolat uyushmalari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

TIR tizimining afzalliklari:

Bojxona rasmiyatchiliklarini soddalashtirish;

Tranzit vaqtini qisqartirish;

Transport xarajatlarini kamaytirish;

Xalqaro savdoni rivojlantirish.

TIR konvensiyasi a'zolari statistikasiga ko'ra, TIR tizimidan foydalanish bojxona nazorati vaqtini o'rtacha 40% ga qisqartirgan va xalqaro yuk tashish xarajatlarini 30% ga kamaytirgan. [5]

Bojxona tranzitini raqamlashtirish

Yevropa Ittifoqining NCTS tizimiga o'xshash kompyuterlashtirilgan tranzit nazorati tizimini yaratish tranzit operatsiyalarini avtomatlashtirish va samarali nazorat qilish imkonini beradi. Bojxona to'lovlarini to'lanishini ta'minlash uchun elektron kafolatlar tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Yuk tashuvchilar uchun mobil ilovalar bojxona rasmiyatchiliklarini masofadan turib bajarish, kerakli ma'lumotlarni olish va xabarlarni olish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini joriy etish. Sun'iy intellekt texnologiyalarini xavflarni baholash va bojxona nazorati obyektlarini saralashda samarali qo'llanilishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi risk tahlili samaradorligini 40% gacha oshiradi va bojxona tekshiruvlari sonini 30% gacha kamaytiradi. Raqamlashtirish sohasidagi xalqaro tajribani o'rganish va uni O'zbekistonda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Xususan, Singapur, Janubiy Koreya va BAA kabi mamlakatlarning tajribasi o'rganilishi lozim. Bu mamlakatlar bojxona tizimlarini raqamlashtirish bo'yicha dunyoda etakchi o'rnlarda turadi. [6]

Mamlakatimizning tranzit salohiyatini oshirishga hissa qo'shadigan bir qator omillar mavjud :

1. Tranzit yo'laklari va yo'l infratuzilmasini rivojlantirish. Xalqaro tranzit yo'laklarini modernizatsiya qilish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash va logistika markazlarini yaratish qulay imkoniyatlar eshigini ochadi.

2. Zamonaviy bojxona-logistika terminallarini yaratish. O'zbekistonda zamonaviy bojxona-logistika terminallarini yaratish tranzit operatsiyalarini samarali tashkil etish va bojxona rasmiyatchiliklarini tezlashtirish imkonini beradi.

3. Chegara postlarida "yashil yo'laklar" tizimini joriy etish. TIR karneti yoki boshqa xalqaro tranzit tizimi doirasida tashiladigan yuk transport vositalari uchun maxsus "yashil yo'laklar" yaratish bojxona rasmiyatchiliklarini tezlashtiradi.

4. Qo'shni mamlakatlar bojxona organlari bilan hamkorlik qilish, birgalikda nazorat o'tkazish va ma'lumot almashish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

5. Raqamli transport yo'laklarini yaratish. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda "raqamli transport yo'laklari"ni yaratish, yuk tashish jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilish samaradorligini oshiradi.

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki O'zbekiston Respublikasining noyob geosiyosiy joylashuvi mamlakatga sezilarli tranzit salohiyatini taqdim etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan bojxona tizimini takomillashtirish, tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar tranzit operatsiyalari hajmining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov, B.N. "Bojxona ishi asoslari". Darslik. – Toshkent: TDIU, 2021. – B. 158
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, "O'zbekistonda investitsion muhit", 2023. – B. 42. ↵
3. Abdurahmonov, Q.X. "O'zbekistonning xalqaro transport yo'laklari tizimida ishtiropi". Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – B. 89
4. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi, "Common Transit and NCTS: Overview", 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati", 2023. – B. 67
6. Jahon banki, "Trade Logistics in the Global Economy", 2023. – P. 78